

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 4

**tsuull.uz
goldenscripts.tsuull.uz**

ISSN 2181-9238

GOLDEN SCRIPTS

OLTIN BITIGLAR

2025 Vol. 4

tsuull.uz

goldenscripts.tsuull.uz

BOSH MUHARRIR
Shuhrat Sirojiddinov
 BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI
Karomat Mullaxo'jayeva
 MAS'UL KOTIB
Ozoda Tojiboyeva
 TAHRIR HAY'ATI
Karl Rayxl (Germaniya)
Isa Habibeyli (Ozarbayjon)
Seyhan Tanju (Turkiya)
Almaz Ulvi (Ozarbayjon)
Benedek Peri (Vengriya)
Vahit Turk (Turkiya)
Teymur Kerimli (Ozarbayjon)
Eunkyung Oh (Koreya)
Nazef Shahrani (AQSh)
Boqijon To'xliyev
Muhammadjon Imomnazarov
Bilol Yujel (Turkiya)
Qosimjon Sodiqov
Zulxumor Xolmanova
Mustafa O'ner (Turkiya)
Nurboy Jabborov
G'aybulla Boboyorov
Kimura Satoru (Yaponiya)
Imran Ay (Turkiya)
Aftondil Erkinov
Nadir Mamadli (Ozarbayjon)
Rashid Zohidov
Otabek Jo'raboyev
Bulent Bayram (Turkiya)
Qo'ldosh Pardayev
Nodirbek Jo'raqo'ziyev
Oysara Madaliyeva
Hilola Nazirova

MUNDARIJA	
MATNSHUNOSLIK	
Bahriddin Umurzoqov	
Aliy Safiy Koshifiy Hiraviyning voizlik, xattotlik va kotiblik faoliyati	4
 ADABIYOTSHUNOSLIK	
Dilnavoz Yusupova	
Fanoyi Sheroziy "Tarixi muluki Ajam" asarining usmonli tarjimoni sifatida	16
Marg'uba Abdullayeva	
"Maqsad ul-atvor" dostoni va uning g'oyaviy- badiiy xususiyatlari	29
 LINGVISTIKA	
Tanju Seyhan	
Ali Şir Nevâyî ve Üslubunda Fiillerin Yeri	42
To'lqin Tog'ayev	
Ashurali Zohiriy – jadid matbuotining atoqli vakili	63
Ma'rufjon Dustmurodov	
Uyg'ur xoqonligiga oid Qarabalg'asun II bitigi: leksik birliklarning badiiy funksiyasi	76
 MATN	
Aftondil Erkinov	
"Majmuat ush-shuaroyi Firuzshohiy" dagi "Ohista-ohista" radifli g'azallar	140

EDITOR IN CHIEF	
Shuhrat Sirojiddinov	
DEPUTY EDITOR IN CHIEF	
Karomat Mullakhojaeva	
EXECUTIVE SECRETARY	
Ozoda Tojibaeva	
EDITORIAL BOARD	
Karl Rechl (Germany)	
Isa Habibbeyli (Azerbaijan)	
Seyhan Tanju (Turkey)	
Almaz Ulvi (Azerbaijan)	
Benedek Peri (Hungary)	
Vahit Turk (Turkey)	
Teymur Kerimli (Azerbaijan)	
Eunkyung Oh (Korea)	
Nazif Shahrani (USA)	
Bakijan Tukhliev	
Mukhammadjan Imomnazarov	
Bilol Yujel (Turkey)	
Kasimjan Sadikov	
Zulkhumor Kholmanova	
Mustafa O'ner (Turkey)	
Nurboy Jabborov	
Gaybullah Babayarov	
Kimura Satoru (Japan)	
Imran Ay (Turkey)	
Aftondil Erkinov	
Nadir Mamadli (Azerbaijan)	
Rashid Zahidov	
Atabek Juraboev	
Bulent Bayram (Turkey)	
Kuldosh Pardaev	
Nodirbek Jurakuziev	
Oysara Madalieva	
Hilola Nazirova	

CONTENTS	
TEXTOTOLOGY	
Bahriddin Umurzoqov	
Ali Safi Kashifi Hiravi's Activities as a Preacher, Calligrapher, and Scribe	4
LITERATURE	
Dilnavoz Yusupova	
Fanoyī Shīrāzī as the Ottoman Translator of Tārīkh-i Mulūk-i 'Ajam	16
Marguba Abdullaeva	
The Epic "Maqsad ul-Atvor" and its Ideological and Artistic Characteristics	29
LINGUISTICS	
Tanju Seyhan	
The Function of Verbs in the Stylistic Framework of Ali Shīr Navā'ī	42
Tulkin Togaev	
Ashurali Zohiri is a Prominent Representative of the <i>Jadid</i> Press	63
Ma'rufjon Dustmurodov	
Karabalgasun II Inscription of the Uygur Khaganate: literary Function of Lexical Units	76
TEXT	
Aftondil Erkinov	
Ghazals with the refrain "Ohishta-ohishta" in "Majmuat ush-shuarayi Firuzshahi"	140

“Maqsad ul-atvor” dostoni va uning g’oyaviy-badiiy xususiyatlari

Marg’uba Abdullayeva¹

Abstrakt

XV asrning oxiri – XVI asrning birinchi yarmida yashab, Xoja taxallusi bilan ijod qilgan Poshshoxoja bin Abdulvahhobxoja ulug’ shayx ul-islom, sadr, shoir va alloma inson edi. Yuksak diniy ilmga ega bo’lgan Xoja o’zining diniy-falsafiy va axloqiy-ta’limiy qarashlarini badiiy talqinda yetkazishga muvaffaq bo’lgan ijodkordir. Uning didaktik ruhdagi asarlari o’z davrida shuhrat qozongan. Xoja Shayboniylar davri o’zbek adabiyoti va ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etib, xalq manfaati yo’lida halol xizmat qiladi. Uning shu kungacha juda kam o’rganilgan asari – “Maqsad ul-atvor” (So’fiylar maqsadi) dostonidir. Xoja haqidagi ilmiy adabiyotlarda, bu asar keyingi yillarda topilganligi sababli munosabat bildirilmagan.

Mazkur maqolada “Maqsad ul-atvor” dostonining kompozitsion qurilishi va g’oyaviy-badiiy xususiyatlari tadqiq etilgan.

Kalit so’zlar: *Poshshoxoja, Xoja, “Maqsad ul-atvor” dostoni, nazira, kompozitsiya, g’oya, mavzu, badiiy xususiyatlar, nasihatnoma, tamsil, tanbeh, tahlil.*

Kirish

O’tmish manbalar, xususan, mumtoz adabiyot asrlar davomida komil insonni tarbiyalashga xizmat qilib kelgan. Shu ma’noda Sharq adabiyotida shaxsning jismoniy, aqliy kuchidan jamiyatning ezgu maqsadlari yo’lida foydalanish an’anaga aylangan. Mazkur an’ananing davomchisi – XV asrning oxiri – XVI asrning birinchi yarmida yashab ijod qilgan Ibodulla Sayyid Poshshoxoja bin Abdulvahhobxoja – Xoja o’zbek adabiyoti tarixida hikoyatlar ustasi sifatida e’tirof etilgan. Adib hikoyatlari mavzu mundariyasi, obrazlar tizimi, g’oyaviy-badiiy jihatdan pishiq va axloqiy-ta’limiy, ma’rifiy ahamiyatga ega kichik asarlardir.

“Maqsad ul-atvor” – axloqiy-didaktik xarakterdagi masnaviydir. Bu doston Nizomiy Ganjaviyning “Maxzan ul-asror”,

¹*Abdullayeva Marg’uba Dusmiratovna* – filologiya fanlari doktori, professor, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o’zbek tili va adabiyoti universiteti.

E-pochta: margubaabdullayeva507@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2088-6040

Iqtibos uchun: Abdullayeva, M. D. 2025. “Maqsad ul-atvor” dostoni va uning g’oyaviy-badiiy xususiyatlari”. *Oltin bitiglar* 4: 29 – 41.

Amir Xusrav Dehlaviyning “Matla’ ul-anvor”, Alisher Navoiyning “Hayrat ul-abror” dostonlariga nazira tarzida bitilgan. Uning vazni xuddi shu dostonlar vazni kabi sare’ bahridadir. Shoir o’z fikr-mulohazalarini *muftailun muftailun foilun va muftailun muftailun foilun* qoliplariga solib taqdim etgan.

Xojaning “Maqsad ul-atvor” asari haqida dastlab A. Tohirjonov “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalining 1975-yil 3-sonida “Xojaning yangi topilgan asari” maqolasida ma’lumot bergan edi [Tohirjonov, 1975. 70 – 73]. Unga ko’ra, ushbu asarning qo’lyozma nusxasi Sankt-Peterburg davlat universitetining Sharq fakulteti kutubxonasida 3706 inventar raqami bilan va Rossiya FAning sharqshunoslik instituti Sankt-Peterburg bo’limi kutubxonasida V-3985 inventar raqami bilan saqlanayotgan nusxa to’g’risida ma’lumot beradi. Shu paytgacha bu mazkur qo’lyozmaga Nizomiy Ganjaviyning “Mahzan ul-asror”i deb qaralgani, haqiqatda esa uning Xojaning “Madsad ul-atvor” asari ekanligi aniqlanadi.

A. Tohirjonov asarning ikki qo’lyozma nusxasini topishga muvaffaq bo’lgan. Birinchi dastxat – 72 varaqdan iborat va bu qo’lyozmaning hajmi – 13x20; har sahifada 12–13 misradan ikki ustunda yozilgan. Ikkinchi qo’lyozma – 59 varaq, qo’lyozmaning hajmi – 12x19. Ikkala nusxani muqoyasa qilib, asar matni tiklab chiqilgach, undagi baytlar miqdori 1908 ya’ni 3917 misra ekanligi aniqlandi [Tohirjonov 1975. 70 – 73]. Dostonning bir qismi “Asrlar nidosi” to’plamida M. Mirzaahmedova tomonidan 1982-yili nashr qilingan. Unda davrning ijtimoiy-siyosiy voqealari bilan bir qatorda shoirning axloqiy-ta’limiy qarashlari o’z ifodasini topgan [Мирзаахмедова, 1980, 68].

Sh. Rahmonovanning “O’zbek epik poeziyasi takomilida aruz tizimining o’rni” mavzusidagi doktorlik dissertasiyasida dostonning vazn xususiyatlariga to’xtab o’tilgan. “Xojaning doston nomini “Maqsad ul-atvor” deb qo’ygani uning shuhrat qozonishini xohlaganidan dalolatdir. Doston sariyi musaddasi matviyi makshuf o’lchovida bitilgan. Belgilangan o’rinlar vaznga moslab o’qiladi [Rahmonova 2023, 196].

Maqsa-d+u-l+at/vor qo’yub/ otini,

— V V — / — V V — / — V —

Shuhrai shahr/ **etdi-m+oning**/ zotini.

— V V — / — V V — / — V V — taqti’sini ko’rsatib o’tadi.

Hasanxoja Nisoriy “Muzakkiri ahhob” asarida shunday ma’lumot beradi: “Maxzan ul -asror” tatabbu’sida “Maqsad ul-atvor” nomli bir kitob tasnif qilganlar va bu bayt o’sha kitobdan. Bayt:

*Til kim emas zikrini aytmoq ishi,
Ne deyub oni og’ziga olg’ay kishi”* [Нисорий 1993, 275].

Ko’rinadiki, Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostoni qisman tadqiq etilgan. Asarning qo’lyozma nusxalari asosida tanqidiy matnini va bugungi alifbodagi tabdilini yaratish manbashunoslar, adabiyotshunoslar oldida turgan muhim vazifalardan biridir.

Asosiy qism

“Maqsad ul-atvor” dostoni Jonibek Sultonga bag’ishlab 1516–1520-yillari yozilgan. Dostonning kompozitsion qurilishi quyidagilardan tarkib topgan:

1. Yettita kirish boblari.
2. Yetti maqolat.
3. O’n beshta tanbeh.
4. Munojot boblari.

Har bir bobda ko’tarilgan masala tamsil (misol keltirish, o’xshatish) va mav’iza (pand-nasihat, o’git) bilan yakunlanadi.

Doston an’anaviy usulda – Allohga hamd va payg’ambarga na’t bilan boshlanadi. “Nasihatnoma” dostonning asosiy qismlaridan biri hisoblanadi. Unda Xoja har bir insonga zarur bo’lgan muhim pand-nasihatlarini masnaviy shaklida bayon qiladi. Kimki pand-nasihatni qulog’iga olsa, o’zini jannatlarga solgan bo’ladi. Hoy-u havasdan tiyilish, foydasiz so’zni gapirmaslik, nafsni jilovlash, Haqning berganiga rizo bo’lish, yaxshi kishilar bilan hamroh bo’lish, ilm-odob va toatni birga olib borish kerakligini uqtiradi. Bu nasihatlar davr hukmdori Jonibek Sultonga bag’ishlab aytilgan. Xoja unga shohlik mas’uliyati haqida gapirib:

*Nechakim, olam ichida shohsan,
Shohlik atvoridin ogohsan* [“Maqsad ul-atvor”, 3], – deb yozadi.

Jonibek Sultonning to’liq ismi – Jonibek ibn Xoja Muhammad ibn Abulxayrxon bo’lib, Abulxayrxonning nevarasi, Muhammad Shayboniyxonning amakivachchasi bo’lgan. Ma’lum vaqt Farg’ona (Axsi)da, keyinchlik Karmanada hukmronlik qilgan. Ko’p harbiy yurishlarni amalga oshirgan, diniy va dunyoviy bilimlarga ega tajribali shaxs edi. Xoja uning xizmatida bo’lib, diniy va ijtimoiy masalalarni hal etishda maslahatlar bergan.

*Oting erur Jonibek, ey shahriyor,
Xon ila xoqonsanu ham shahriyor.
Toleinga baxt mutobiq erur,
Davlatingga taxt muvofiq erur* [“Maqsad ul-atvor”, 3].

“Nasihatnoma”ning ikkinchi qismida Xoja Jonibek Sultonni madh etadi. Unda Jonibek Sulton donishmand, davlat va taxtga munosib, shijoatli va adl-u saxovatda yagona hukmdor sifatida ulugʻlangan. Uning dinni sidq bilan himoya qilishi taʼkidlanadi. Xoja madhdan soʻng zulm-u sitamlar zamona ahlini xarob qilgani, jamiyatda adolat, din poymol boʻlayotgani haqida kuyunib soʻzlaydi. Elga bu kunda adolat kerakligini aytadi. Jonibek Sultonga lutf qilib, soʻzlariga quloq tutishini soʻraydi. Din-u diyonatdan, islomdan voz kechmagani, oʻz uyi – vatanidan chiqib, unga yetishganini izhor qiladi. Asar muallifi jahon shohidan har bir ishga adolat bilan javob berishini istaydi. Tiriklikni gʻanimat tutishi, yaxshi kishilar bilan suhbatda boʻlishi, beklar bilan kengashishi kerakligini nasihat qiladi. Odil, pok eʼtiqod, bahodir, ilmi, himmatli, karomatli kabi sifatlar bilan ulugʻlaydi. Jonibek Sultonni Shayboniylar ichidagi chirogʻ deb baholaydi.

*Adl-u saxovat bila boʻlsang mudom,
Mulk boʻlur fath sanga vassalom* [“Maqsad ul-atvor”, 6].

Shu oʻrinda, Xoja oʻz ahvoli haqida ham gapiradi:

*Xojayi bechoragʻa solgʻil nazar
Kim, nazaringdin boʻlur ul moʻtabar.
Bor gʻarib-u vatanidin yiroq,
Tortaturur mehnat-u dard-u firoq.
Aylasang, gar soʻzi birla amal,
Mulk aro boʻlmagʻusidur xalal.
Soʻzni dedim emdi duo aylayin,
Sanga dedim emdi duo aylayin* [“Maqsad ul-atvor”, 6].

Xoja hukmdordan unga nazar solishini, uning eʼtibori tufayli aziz boʻlishini soʻraydi. Vatanidan yiroqda, musofirlikda dard-u firoq chekayotganini tushuntirmoqchi boʻladi.

“Nasihatnoma”dan soʻng “Bu kitob nazmining sababi” bobi berilgan. Unda Xoja shoirlar ichida oydek toʻlishgani va Nizomiydan nur olib dostonni yozishga kirishgani haqida soʻz boradi. Bu mavzuda soʻz aytgan Xisrav-u Jomiy, Hotifiy va Navoiyni tilga olib, ularning “Xamsa” bitganlari tasvirlangan. Endi navbat oʻziga kelganidan, salaflaridan himmat tilagani, ustozlariga ixlos bilan bu ishni boshlayotgani tilga olingan. Shahriyorning lutf va ehsoni bilan yoz-u qish unga din yoʻlida xizmat qilganini aytgan. Asarining Jonibek Sultonga bagʻishlagani hamda asar nomi xususida shunday yozilgan:

*“Maqsad ul-atvor” qo‘ydim otini,
Shuhrai shahr etdim oning zotini...
Adlg‘a sa‘y aylar edim shohni,
Yoriy qilib o‘zima Allohni [“Maqsadul-atvor”, 8].*

*Xoja duo aylar edi har zamon
Kim, bu jahonshohni tutg‘il amon.
Yorab, oni ikki jahon shohi qil,
Adl-u saxo rif‘atining mohi qil [“Maqsadul-atvor”, 9].*

“Farzandi aziz-u dilband, mir Abdussalom Xojaning nasihati bobida” o‘z farzandi Abdussalomga nasihat qiladi. Mazkur bobda Xoja ota va o‘g‘il munosabatini o‘z farzandi misolida yuksak darajada tasvirlab bergan.

*Eyki azizim, dog‘i farzandsan,
Ham manga farzand, jigarbandsan.
Tanda huzurimsan-u ko‘zimda nur,
Ko‘nglum aro jonsan-u jonda surur [“Maqsadul-atvor”, 9].*

Xoja Abdussalom ismli farzandiga nasihat qilib, isming yaxshi, shu ismga loyiq bo‘lishing kerak, deydi. Ilm olishni, o‘qishni, hoy-u havasga berilmaslikni uqtiradi. “Bolaligingda ko‘nglingga nima kelsa qilar eding, endi sen ham ulg‘ayding. Endi so‘zlaring va‘z-u pand bo‘lishi kerak. Chunki asling olim-u fozillar, shayx-u valilardan. Sen ularga ergashib, ish tut. Dunyodan vafo istama, mol-u dunyo bilan xotirjamlik istama. Endi yaxshi yomonni farqla. To‘g‘ri so‘z shioring bo‘lsin. To‘g‘ri odamning yor-u do‘sti Allohdir. Yolg‘on aytmqlikdan voz kech. Yolg‘onchilar bilan do‘st tutinma. Fozili komilga yaqin borishni, johil-u nodondan uzoq yur” – deb ta‘kidlaydi va “Nasihatnoma”ni shunday misralar bilan xulosalaydi:

*Ol bu nasihatni mani zordin,
Xojayi mahzuni dilafgordin.
Gar bu nasihat bila qilsang maosh,
Bo‘lg‘usisan yaxshi sifat birla fosh... [“Maqsad ul-atvor”, 10].*

Demak, dostonning “Nasihatnoma” qismi davr sultoni – Jonibek Sultonga hamda farzandi Abdussalomga bag‘ishlangan. Xoja Jonibek Sultonni adolat va saxovatli bo‘lishga chaqirsa, o‘g‘li Abdussalomni qilgan xatolaridan to‘g‘ri xulosa chiqarishga undaydi.

Shundan so‘ng asarda yettita maqolat keltirilgan. Jumladan, ikkinchi maqolatda Jonibek Sultonning adolat bilan saltanat saroyini obod etgani ta‘riflangan. Jonibek avval sulton, keyin xonlik

martabasiga yetgani, adolati, saxovati, faqir, xasta, yetimning holidan xabar olib, ochga non bergani, sovuq qotganga to'n bergani aytilib ulug'lanadi – madh etiladi. Uning zamonida adolat barqaror. Shuning uchun bu zamonda bo'ri bilan qo'y birga yuradi, deb mubolag'a qiladi muallif.

Har bir maqolatdan keyin tamsil berilgan. Tamsil – misol keltirish, o'xshatish ma'nolarini anglatadi. Xoja Jonibek Sultonning adolatini tamsil qilib, No'shiravon bilan tenglashtiradi. Uning zamonida odamlar zulm nimaligini bilmas edilar. Chunki zulmni ko'rmagan, his qilmagan odam uning nimaligini bilmaydi, deb ta'kidlaydi shoir. Tamsilning mazmuni shunday: "Bir kuni No'shiravon mulkini imtihon qilishga kirishdi. Yurtini tuzilgani yoki buzilganini bilish uchun o'zini xastaga solib yotdi. Uni barcha xalqi so'rab keldi. Sening dardingga nima shifo bo'lsa, hammasi mamlakatingda bor. Jondan azizroq nima bor? Uni senga fido qilishga ham tayyormiz. Sening kasalliging shifosi nima bo'lsa izlab topamiz, dedilar. Shoh shunda: Turing va chopping! Men uchun eski imorat toping! Shu imoratning bitta g'ishtini olib keling. Men shu g'isht bilan kasalimni yo'qotay. Barcha xalq bu buyruqqa itoat etib, yurtini kezdilar, har bir odamdan so'rab-surishtirdilar, biroq bunday eski imoratni topa olmadilar. Bu holatni ko'rgan Boyqush (boyo'g'li) dod va faryodlar qildi. Shahonshohning adlidan bizga sitam keldi, deb. Dunyoda vayrona topilmasligi ayon, uning ichida aylasang oshyon.

G'isht tilaganlar barchasi hayron bo'lib, horib-tolib shoh oldiga keldilar. Shohga boyqush so'zin aytdilar. Sening adolating bilan jahonda vayronalar qolmadi. Biz vayronadan asar ham topmadik. Boyqush bizga zorlik bilan so'radi: Hech ko'rdingizmi sitam bilan xorlik. Men bechora iztirob bilan eski imorat va xaroba topolmadim.

No'shiravon bu so'zlarni eshitib, Allohga shukr qilib, sajdaga bosh urdi. Elga aytdiki, meni kasalligimdan maqsad shu ediki, mamlakatim obodmi, el adolatdan bahramandmi, bilmoqchi bo'ldim. Shukrki, menga adolat bilan mulkni obod etish nasib qildi. Adolat bilan do'zax o'tidan xalos bo'ldim ["Maqsad ul-atvor", 15].

Tamsil – Xojaning o'tmish podshohlari adolati ulug'langan nazmiy hikoyatidir. Bunday yondashuv "xamsa"chilik an'anasida birinchi dostonning ta'limiy-didaktik ruhda bo'lishi talabi bilan bog'liq. Demak, Xoja salaflari an'anasini davom ettirish bilan birga mazkur yo'nalishdagi dostonlarga yangi mavzu, yangicha yondashuv olib kirdi. Ya'ni dostonni shohlarga – xonlarga "Nasihatnoma" bilan

boshladi.

Tamsildan so’ng asarda “Ma’viza” keladi. Ma’viza pand-nasihat, o’git ma’nolarini bildiradi. Demak, muallif har bir she’riy hikoyatdan keyin o’git berib o’tadi. Bu ma’viza – o’git ham aynan xonga bag’ishlangan.

*Emdiki, san shohi zamonsan bu kun,
Taxti xilofat uza xonsan bu kun.
Shohlar aro oting erur Jonibek,
Hashmating erur bori Jamshiddek* [“Maqsad ul-atvor”, 16].

Ma’vizada Xoja Jonibekka adolat kitobini och va undan No’shiravon saboq olsin, deydi. Xalqqa sitam qilmasligini, ularni zulm va sitam bandidan ozod qilishini so’raydi. Agar shunday sifatlar bilan xonlik qilsang, noming dahr ichida shuhrat topadi.

“Hilmni ilm maosh qilib, sabri tahammulda o’zin fosh qilib, g’azabdin andesha va sabrni pesha qilur bobida” berilgan tanbehda hilm va sabrni o’ziga do’st tutishi, qahr va g’azabdan tiyilishi, aql bilan ish ko’rishi zarurligini uqtiradi, jumladan:

*Aqldur ul kim bilur Allohni,
Aql gado birla tonur shohni* [“Maqsad ul-atvor”, 22].

Tanbehda Jonibek Sultonga murojaat qilib, Xudo senga mansab-u davlat, ko’p sipoh va hasham, saltanat va hurmat berdi. Sen hilm (kamtarinlik)ni, sabrni o’zinga yaqin olib, ish tut, – deydi. Shoir insonga xos eng muhim sifatlardan hilmlik va sabrning yuqori o’rinda turishini, inson bu sifatlari bilan nom qozonishi mumkinligini xonga nasihat tarzida yetkazadi.

Tanbehlarda turli mavzulardan bahs boradi. Jumladan, yettinchi tanbeh, ya’ni “Ishq maqomida sobitqadam va mahbub talabida adam bo’lib, qarori haq bila anvori daqoyiqni mushohada qilur bobida” ishq dunyoviy va ilohiy tuyg’u sifatida talqin etiladi. Ishqsiz inson dunyoda yashay olmasligi, ishq haqiqat ekani, u shariatga intizom berishi, tariqatda esa maqom darajasini ko’rsatishi ta’kidlanadi. Xoja ishqni shunday ta’riflaydi:

*Nuri basar, didayi jon ishqdir,
Hosili tan, ruhi ravon ishqdir...
Ishq Zulayxoni etib bebasar,
Yusufi Misrg’a edi jilvagar.
Ishqki, Layli yuzida qildi noz,
To’kdi oning oldida Majnun niyoz.
Ishq bo’lib mevayi Shirin mazoq,*

Ayladi Farhodni g'am ichra toq.

Ishq bo'lib, Musoyi Umrong'a barq,

Qildi majoz birla haqiqatni farq ["Maqsad ul-atvor", 24].

Xulosa sifatida aytish mumkinki, mazkur tanbehda Xoja ishqni ta'riflar ekan, uning majoziy va haqiqiy sifatlarini farqlash, mohiyatiga yetish haqida fikr bildiradi. Shu qatorda dunyoviy ishq-muhabbatni bog'dagi gulga, cholg'u nag'masiga bog'lab tasvirlaydi.

Har kishikim, ishq anga hamdam emas,

Bil onikim, ul kishi odam emas, – deb ta'kidlaydi, shoir.

Xoja qalbida ishq bo'lmagan kishini odamlar safiga qo'shmaydi.

Dunyoviy va ilohiy ishqning muhimligi, inson kamoloti kaliti ekanligi tanbehning xulosasi sifatida beriladi. Tariqat ahlining ishq ilohiy yetishuvida, pir tarbiyasi muhim ahamiyat kasb etishi aytiladi:

Ishq bila bo'lmasa, har kim murid,

Tutmasin ul piridin aslo umid.

Xoja tanbehlarida (9-tanbeh) dunyoviy masalalar ham qalamga olingan. Insonni dunyoga bog'lab qo'yadigan ne'matlar – mol-dunyo va farzand deb ko'rsatiladi. Shoir insonni Haqdan yiroqlashtiradigan mana shu ikki ne'mat haqida falsafiy qarashlarini bayon qiladi. Mol-dunyo va farzandga qo'ygan mehr, toat uchun mone'lik qiladi. Inson kamoloti masalalariga bag'ishlangan asarlarda bunday qarash ko'zga tashlanmaydi. Bu bilan Xoja dunyoviy muammolardan chiqib, Haqqa yetgan, uning ishq yo'liga kirgan solik timsolida namoyon bo'ladi. Xoja Haqqa iltijo qilib:

Mol ila farzandga band etmagil,

Mehrini bo'ynimga kamand etmagil – deydi. Xojaning bu tarzda ifodalari – dunyoviy istaklarni yengib, ilohiyot sari intilishga da'vati tasavvuf tariqati yo'lidagi shaxs ekanligini ko'rsatadi. Bunday o'sish Xoja ijodining kulminatsion nuqtasi hisoblanadi. Tasvir va yondashuvdagi yangicha poetik mulohazalar, asarni original doston sifatida baholash uchun xizmat qiladi.

Dostondagi 10-tanbeh "So'fiylar bobi..."da deb nomlangan. Bu bobda ham Xoja so'fiylarga nisbatan o'ziga xos yondashganining guvohi bo'lamiz. Shoir o'z davri riyokor so'fiylarini ochiq tanqid qiladi. Ularning zohiri bilan ko'ngli bir emasligi, bir faqirning ularga ishi tushsa, oyoq ostiga olib haqoratlashlari, o'zini odamlardan ustun qo'yishi, harom luqma yeyishi, xalqni ko'ziga o'zlarini shayx

qilib ko’rsatishi kabi illatlarini tanqidiy ruhda tasvirlaydi. Soqolni uzun qo’yib, bo’yniga rido bog’lab, tasbehni qo’lida olib, o’zini zikr ahlidan qilib ko’rsatishini qoralaydi:

*Ushbu sifat birla xudodin uyol,
Zavq-u riyo otini sot-u uy ol – deydi, shoir.
Xoja soxta so’fiylarga qarata yana:
So’fiy esang bo’lma riyo birla fosh,
Qilma bu olamda bu turluk maosh – deb yozadi.*

Shoir ularni faqat tanqid qilmasdan, yo’lini yo’qotgan so’fiy, shayxlarga to’g’ri yo’l ko’rsatadi. Haqiqiy ishq yo’liga kirishga da’vat etadi. Buning uchun avvalo, til va ko’ngilni birdek tutishga chaqiradi:

*Til bila ko’ngling so’zini bir qil,
Birliging atvorini tadbir qil.
So’fi ishi tangriga loyiq kerak,
Til bila ham ko’ngil muvofiq kerak.
Harnaki, til birla qilursan bayon,
Ko’nglunga ham bo’lsa kerak u ayon.
Qilmasa til ko’ngil ila ittifoq,
Bilki budur shevayi zarq-u nifoq [“Maqsad ul-atvor”, 32].*

10-munajat ham so’fiylarga bag’ishlangan bo’lib, Xoja o’zini “so’fiyi sofiy” maqomida tutishini Tangriga munajat qilib so’raydi:

*Ko’ngulni sof ayla riyodin tamom,
So’fiyi sofiy qil-u tut ehtirom.
Sidq yo’lida yurutub sodiq et,
Toatinga sidq bila loyiq et [“Maqsad ul-atvor”, 33].*

Doston kompozitsiyasi – maqolat, hikoyat-tamsil, ma’viza, tanbeh va munajat shaklida tartiblangan. Doston “Hikmati hakim” bobi bilan tugaydi. Asarning bu qismi ham Xojaga xos talqinlarga boy. Jumladan, unda umrning o’tkinchiligi, o’lim haqligi, o’zidan oldin yashab o’tgan ilm ahli, salaflari hayoti va ijodi bilan bog’lab mushohada etilgan. Hakim hikmati, bu – go’yo Xojaning dunyodan olgan hikmati kabidir. Asarda bir nechta tarixiy shaxslar, ijod ahli, salaflari, hikmat ahllarining nomlari tilga olingan. Mavlono Rumi, Shayx Nizomiy (“Xamsa” ibtido qildi), Xusrav Dehlaviy (o’sha tavr ila “Xamsa” dedi), Hofiz Sheroziy (she’ri oning lison ul-g’ayub), Sa’diy (shohi suxandon, yana “Bo’ston” va “Guliston”...), shayx Sanoiy, Xoja Kamol, Firdavsiy (nuktadon, nazm vujudig’a solib erdi jon...), Shoh Uvays, Salmon (qissa bobida suxandon), Lutfiy, Shohiy (shoir), Kotibiy, Jomiy (she’riyatda shoh, fazl-u kamol ahliga homiy...),

Navoiy (ko'p she'r aytdi, "Xamsa" yozdi...) shular jumlasidandir. Xoja salaflarini alohida hurmat bilan tilga oladi va ulardan bu dunyoda faqat aytgan yaxshi so'zlari qolganini e'tirof etadi. "Shu haqiqatni anglaganim uchun ham yaxshi so'z bilan pand aytdim", – deydi shoir. Ustozlari kabi Xojaning so'zlari ham abadiyatga muhrlanishini istaydi.

*To bu jahon bor – bu so'z bordur,
Ilmi haqiqatga bu so'z yordur.
Kimki, borib qo'ydi esa yaxshi ot,
O'lmadi ul kishi-yu topti hayot.*

Xoja dostonini ana shunday umidlar bilan yozganini, o'zi o'tib ketsa-da uning so'zlari jahonda qolishini aytadi. Mana shu o'rinda, Xoja qanday janrlarda she'rlar yozganini ham birma-bir sanab o'tadi:

*Dahr matoyi keta-ru so'z qolur,
Kimki futuh olsa bu so'z din olur.
Men ham alarg'a qilibon iqtido,
Nazm ila soldim bu jahong'a sado.
She'r-u **g'azal** fikrin agarchi yedim,
Fikrim ila **masnu'i sone'** dedim.
Fikr **ruboiy** ila ham **mustazod**,
Qildim-u ko'nglum onga ko'p bo'ldi shod.
Dedim esa, fikr ila **masno'ini**,
Ayladim izhor bu **matbo'ini**.
Ondaki bu navni yod ayladim,
Ko'p hunar ul fanda ziyod ayladim,
Qildim esa elga bu fanni kitob,
Hech kishi qilmadi onga javob... ["Maqsad ul-atvor", 38].*

Keltirilgan masnaviy-parchadan anglashiladiki, Xoja g'azal, tuyuq, ruboiy, mustazod janrlari va masnaviyda ijod qilgan. Xoja ijodiga oid ma'lumotlarning yetarli emasligini nazarda tutganda, bu masnaviy muhim ilmiy ahamiyatga ega. Unda shoirning she'rlar yozgani o'z iqrori bilan dalillangan. Demak, Xoja o'z davrida shoir sifatida ham katta shuhrat qozongan. Uning lirik devon tartib bergani ham ehtimoldan yiroq emas. Xoja "Hikmati hakim"da ustozlarini nomini bir-bir sanab, ularning kitoblariga javob yozganini eslaydi. Biroq o'zining bu kitobiga hech kishi javob bermadi. Nazarimizda, Xoja o'z asarini jahonda mumtoz ekani bilan faxrlanib, kamtarlik bilan hech kishi uning fikriga yo'l topmaganini aytadi. "Pand-u nasihatimni o'qiganlar haqqimga qo'l ko'tarib duo qilsinlar. Kimki

sidq bilan kitobimni o’qisa, sira zarar ko’rmagay. Jahonda shunday bir yodgorlik qoldirdimki, unga “ash’or-u yor” albatta, nazar qilgay” mazmunidagi fikrlari buning dalilidir.

Xulosa

“Xamsa” dostonlariga javoban yozilgan asarida Xojaning diniy, falsafiy, axloqiy qarashlari muhim o’rin tutadi. “Maqsad ul-atvor” dostoni uning dunyoqarashini o’rganishda muhim manba bo’lib xizmat qiladi. Dostonning asosiy g’oyasi inson kamoloti masalasini yoritishga qaratilgan. Xoja inson ma’naviy fazilati, uning yaxshiliklar uchun yaratilgani, dunyoning o’tkinchiligi, har bir inson mansabi, lavozimidan qat’iy nazar tengligi haqida gapiradi. Shu bois, nafsoniy havaslarga berilmaslik, botiniy dunyo haqida o’ylash, ruhiy komillik kasb etish zarurligini ta’kidlaydi. Insonga xos rostgo’ylik, halollik, mehr-oqibat, kamtarlik fazilatlarini ulug’laydi. O’g’rilik, munofiqlik, dilozorlikni qoralaydi. Doston muallifi har kimdan yaxshi so’z qolishini aytib, pand-nasihat qiladi:

*Odam uldirkim, jahonda yaxshi so’zdan pand olur,
Qolmas ushbu odam, ammo olam ichra so’z qolur.
So’zki keldi arshdin yer yuzina islom uchun,
Oyati Qur’ondur ulkim, nuridin partav solur.*

Xoja o’z asarlari bilan jamiyatda adolatni qaror toptirishga harakat qilgan. Xalqni boshqarib turgan sulton, bek va amaldorlar hamda dini islom homiylarini insof va diyonatga, to’g’rilik va halollikka da’vat etgan. Insonni oliy qadriyat sifatida baholab, har kimning jamiyat oldidagi burch va huquqlaridan to’g’ri foydalalanishga chaqiradi. Ayniqsa, uning mukammal jamiyatda inson teng huquqli bo’lishi kerak, degan qarashlari diqqatga sazovordir.

Adabiyotlar

- Абдурауф Фитрат. 1928. *Ўзбек адабиёти намуналари*. Тошкент-Самарқанд.
- Мирзааҳмедова, М. 1975. Хожа. Ҳаёти ва ижоди. Тошкент: Фан.
- Мирзааҳмедова, М. 1980. “Хожанинг “Мақсад ул-атвор” дostonи”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 5: 68. Тошкент.
- Ҳасанхожа Нисорий. 1993. *Музаққир аҳбоб* (Дўстлар ёдномаси). Тазкира. Форс тилидан Исмоил Бекжон таржимаси. Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти.
- Rahmonova, Sh. 2023. *O’zbek epik poeziyasi takomilida aruz tizimining o’rni*. Filolofiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent.

- Poshshoxoja. 2025. *Maqsad ul-atvor*. Exported from Wikisource on May 25.
- Пошшоҳўжа. 1962. “*Мифтоҳул-адл*” ва “*Гулзор*”дан парчалар”. Нашрга тайёрловчи: Зоҳидов В., Ғаниева С. Тошкент.
- Тоҳиржонов, А. 1975. “Хожанинг янги топилган асари”. *Ўзбек тили ва адабиёти* 3: 70.
- Зоҳидов, В. 1961. “*Мифтоҳ ул-адл*” ва “*Гулзор*” ҳақида. Ўзбек адабиёти тарихидан. Тошкент.

The Epic “Maqsad ul-Atvor” and its Ideological and Artistic Characteristics

Marguba Abdullayeva¹

Abstract

Poshshokhoja bin Abdulvahhobkhoja, who lived in the late fifteenth century and the first half of the sixteenth century and wrote under the pen name Khoja, was a prominent shaikh al-Islam, *sadr*, poet, and scholar. Possessing profound religious knowledge, Khoja successfully articulated his religious-philosophical and ethical-educational views through literary expression. His didactical works gained a considerable recognition during his lifetime. Actively engaged in the literary as well as the socio-political life of the Shaibanid period, Khoja served the interests of the people with integrity. One of his works that has remained insufficiently studied to date is the masnavi *Maqsad al-Atwar* (“The Aim of the Sufis”). As this work was discovered only in recent years, it has not been adequately addressed in existing scholarly literature. This article investigates the compositional structure and the ideological and artistic features of the masnavi *Maqsad al-Atwar*.

Key words: Pashshokhoja, Khodja, epic “Maksad ul-atvor”, satire, composition, idea, theme, artistic features, instruction, allegory, reproach, analysis.

References

- Abdurauf Fitrat. 1928. *O'zbek adabiyoti namunalari*. Toshkent-Samarqand.

¹ Marguba D. Abdullayeva – Doctor of Philology (DSc), Professor, Tashkent State University of Uzbek Language and Literature named after Alisher Navo'i.

E-pochta: margubaabdullayeva507@gmail.com

ORCID ID: 0000-0003-2088-6040

For citation: Abdullayeva, M. D. 2025. “The Epic “Maqsad ul-Atvor” and its ideological and artistic characteristics”. *Golden Scripts* 4: 29 – 41.

- Mirzaahmedova, M. 1975. *Xoja. Hayoti va ijodi*. Toshkent: Fan.
- Mirzaahmedova, M. 1980. “Xojaning “Maqsad ul-atvor” dostoni”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 5: 68. Toshkent.
- Hasanxoja Nisoriy. 1993. *Muzakkiri ahbob* (Do‘stlar yodnomasi). Tazkira. Fors tilidan Ismoil Bekjon tarjimasi. Toshkent: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti.
- Rahmonova, Sh. 2023. *O‘zbek epik poeziyasi takomilida aruz tizimining o‘rni*. Filolofiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi. Toshkent.
- Poshshoxoja. 2025. *Maqsad ul-atvor*. Exported from Wikisource on May 25. 41 b.
- Poshshoxo‘ja. 1962. “*Miftoh ul-adl*” va “*Gulzor*”dan parchalar”. Nashrga tayyorlovchi: Zohidov V., G‘anieva S. Toshkent.
- Tohirjonov, A. 1975. “Xojaning yangi topilgan asari”. *O‘zbek tili va adabiyoti* 3: 70.
- Zohidov, V. 1961. “*Miftoh ul-adl*” va “*Gulzor*” haqida. O‘zbek adabiyoti tarixidan. Toshkent.